FARG‘ONA VILOYATI MARG‘ILON SHAHAR HOKIMINING
Q A R O R I

2023 - yil 30 - oktabr 231-11-168-Q/23 Marg‘ilon shahar hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2024 yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2020 y., 03/20/642/1396-son), 39-moddasi, “Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008 y., 29-30-son, 277-modda) 25-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.12.2017 y, 09/17/965/0393-son) asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun shaharda 2024 yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish, qo‘shimcha ish joylari yaratish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N :

1. Shaharda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

"Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risida"gi Nizomga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun korxona, tashkilot va muassasalarda 2024 yilga belgilangan kvota ish o‘rinlari ro‘yxati 2-ilovaga asosan tasdiqlansin.

2-ilovaga muvofiq xodimlarning ro‘yxati bo‘yicha o‘rtacha sonidan

8318 nafarni tashkil etadigan 3 foiz miqdorida, bu 245 kishini tashkil etadi, shu jumladan:

- yolg‘iz ota, yolg‘iz ona va 14 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolalari bor ko‘p bolali ota-onalar uchun 56 kishi ;

- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar uchun «Mehribonlik» uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 182 kishi;

- O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 26 kishi;

- nogironlar uchun –sog`ligining ahvoli va mehnat faoliyatiga nisbatan belgilangan zid ko`rsatgichlar hisobga olingan holda hamda nogironlardan ishga joylashish kam bo`lganda kam qolgan ish o`rni ta`lim muassasasini tugatgan yoshlar uchun band qilinsin 248 kishi;

- pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar 11 kishi;

- jazoni o‘tash muassasalaridan ozod qilingan, jazoni o‘tayotgan yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy xarakterdagi majburiy choralar ko‘rilgan shaxslar uchun 54 kishi;

- ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarning boshqa toifalari, shu jumladan odam savdosidan jabrlanganlar va atrofidagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy axamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun 4 kishi miqdorida ish o‘rinlari zaxirasini belgilaydi.

2. Ushbu toifa shaxslar uchun ish o‘rinlari xodimlar tomonidan o‘zlarining mehnat majburiyatlarini to‘siqlarsiz bajarishini ta’minlaydigan sanitariya-gigiyena normalari va mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishi kerak.

3.Ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va
lavozimlar:

hisobchi, o‘qituvchi, hamshira, shifokor, haydovchi, kompyuter operatori, tikuvchi, huquqshunos, xodimlar ishlari bo‘yicha inspektor, iktisodchi, menejer, yo‘l ishchisi, kulol, chilangar, sartarosh, bog‘bon, farrosh.

4. Shahardagi korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil
5 dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan

shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta’minlash;

2024 yil boshlangunga qadar o‘n kundan kechikmay ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi hajmida ish o‘rinlari band qilib qo‘yilishini va tayyor bo‘lishini ta’minlasin va bu to‘g‘risida tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga yozma axborot berish;

ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini band qilib qo‘yish tashkilot
(ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning ikkinchi choragi mobaynida ta’minlansin va bu to‘g‘rida shahar Axoli bandligiga ko‘maklashish markaziga ikkinchi chorak tugagandan keyin o‘n kundan kechikmay yozma axborot berish;

tashkilot, korxona va muassasalar har oyda shahar Kambag`allikni qisqartirish va bandlik bo`limiga yuqorida ko‘rsatilgan toifadagi shaxslarning ishga joylashtirilishi to‘g‘risida ushbu nizomni 5-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha axborot taqdim etishi;

band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlarining belgilangan soni hisobiga ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining tayyorligi to‘g‘risidagi axborotni tashkilot tomonidan taqdim etilmaganligi va amalda ularning tayyor emasligiga mehnat organi tomonidan mahalliy davlat hokimiyati organi qarorining bajarilmaganligi sifatida qarashi lozimligi qayd etilsin.

5. Ushbu qaror bajarilmagan, shuningdek zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlariga shahar Kambag`allikni qisqartirish va bandlik bo`limi tomonidan yuborilgan shaxslarni ishga qabul qilishni asossiz ravishda rad etgan taqdirda tashkilot korxona muassasaning mansabdor shaxslariga O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 41-moddasiga asosan Qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo‘lishi to‘g‘risida ogohlantirilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining 2019 yil 10 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi 19-2019-B sonli buyrug‘iga (AV ro‘yxat raqami № 3163, 31 mart 2019 yil) muvofiq, ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam ish o‘rnidan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga - rejadan ortiq qabul qilingan har bir hodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy xisoblash stavkasining

2 baravari miqdorida subsidiya to‘lab berilishi inobatga olinsin.

7. Shahar Kambag`allikni qisqartirish va bandlik bo`limi (M.G`ulomov) bir hafta muddatda ushbu qarorni 2-bandida ko‘rsatilgan tashkilot, korxona, muasasalar rahbarlari e’tiboriga yetkazsin va uning bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

8. Mazkur qaror qabul qilingandan so‘ng “Marg`ilon haqiqati” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin xamda shahar hokimligining rasmiy veb saytiga joylashtirilsin.

9. Hokimlik devonxona mudiri G.Xadjayevaga:

ushbu qaror rasmiy nashrda e’lon qilingan kundan boshlab 3 kun ichida Farg‘ona viloyat adliya boshqarmasi tomonidan davlat hisobiga olish uchun qog‘oz va elektron shakllarda shahar adliya bo‘limiga taqdim etilsin.

10. Qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari O.Xomidov zimmasiga yuklansin.

Shahar hokimi **Sh. Nisbatxonov**

Marg‘ilon shahar hokimining
2023-yil 30-oktabrdagi
231-11-168-Q/23-son qaroriga
1-ilova

1-ilova

Shaharda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi

№	F.I.SH.	Lavozimi
1	O.Xomidov	Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari *Komissiya raisi*
2	M.G‘ulomov	Shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i *Komissiya kotibi*
3	X.Jo‘raboyev	Mudofaa bo‘limi boshlig‘i
4	O.Atadjanov	Budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi Marg‘ilon shahar bo‘limi boshlig‘i
5	G.Qayumova	Shahar Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limi boshlig‘i
6	R.Xolmatova	Shahar hokimligi huzuridagi Jazoni ijro etish joylaridan bo‘shatilgan shaxslardan ijtimoiy ko‘nikmalar hosil qilish markazi rahbari
7	N.Raximov	Shahar Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i
8	B.Abdullayev	Shahar Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i

Izoh: komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning o‘rniga yangi tayinlangan shaxslar komissiya a’zosi hisoblanadi.

Marg‘ilon shahar hokimining
2023-yil 30-oktabrdagi
231-11-168-Q/23-son qaroriga
2-ilova

2-ilova

2024 yilda Marg‘ilon shahri bo‘yicha ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni korxona tashkilotlar bo‘yicha ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari to‘g‘risida
MA’LUMOT.

№	Tashkilotlar nomi	Korxona INN raqami	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	Kelgusi yilga zaxiraga kuyish taklif etilayotgan ish o‘rinlari soni	shu jumladan								
					Yolg‘iz ota, yolg‘iz ona hamda 14 yoshgacha nogiron bolalari bo‘lgan ko‘p bolali ota-onalar	umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar;	«Mehribonlik» uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari;	Safarbarlik chaqiriq zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari saflaridan muddatli xarbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlar soni	Bandlikka ko‘maklashish markazlarida ish qidiruvchi sifatida xisobda turgan pensiya yoshiga yaqin qolgan shaxslar	Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlar soni	Jazoni o‘tash muassasalaridan bushatilganlar	Odam savdosi bilan jabrlanganlar	Ijtimoiy axamiyatli kasalliklar bilan og‘riyotganlar
1	VXTB TASARRUFIDAGI 2- NURLI MASKAN MAKTABI	309871667	60	4	1	1				2			
2	Marg‘ilon shahar Obodonlashtirish boshqarmasi	200138992	410	29	3			1		11	15		
3	Marg‘ilon maqom teatri	306803689	118	8	1	1		1		4	1		
4	Barkomol avlod bolalar markazi	207124483	60	4		2				2			
5	Bolalar shifoxonasi	206948305	240	17	2	4		1	1	7	2		
6	Yukumli kasalliklar shifoxonasi	200140059	168	12	2	3		1		5	1		
7	Tibbiyot birlashmasi	200138669	956	67	4	19		2	3	29	7	1	1
8	2-Oilaviy poliklinika	204942781	214	15	2	4		1	1	6	1		
9	6-Oilaviy poliklinika	203147118	156	11	2	4		1	1	5	1		
10	Tug‘ruq kompleksi	203086614	330	23	3	5		1	1	10	3	2	
11	Bolalar stomotologiya poliklinika	203288339	72	5	1	2				2			

12	3-Oilaviy poliklinika	203517542	135	9	1	2	,	1		4	1		
13	5-Oilaviy poliklinika	203394888	104	7		3				3	1		
14	7-Oilaviy poliklinika	205061382	106	7	1	2		1		3			
15	4-Oilaviy poliklinika	206066636	120	8	1	2				4	1		
16	1-Oilaviy poliklinika	206066629	135	9	1	2			1	4	1		
17	Uz.Res.SSV KUXYUKMM	205324007	58	4	1	1				2			
18	Marg‘ilon shahar Sanitariya Erdemiologik osoishtalik va jamoat salomatlik bo'limi	200140042	84	6		2			1	3			
19	Marg‘ilon shahar umumiy o‘rta ta’lim maktabgacha taьlim bo‘limi	305152353	44	3		1		1		1			
20	Marg‘ilo shahar Ko‘p tarmoqli texnikum	200138898	22	2		1				1			
21	2-son kasb xunar maktabi	200140264	115	8	1	2		1	1	3			
22	Marg‘ilon Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikum	200140114	92	6	1	1				3	1		
23	1 son kasb xunar maktabi	200140098	102	7	1	2				3	1		
24	1-ixsoslashtirilgan umumiy o‘rta ta’lim maktabigacha taьlim muassasasi	207007596	101	7	1	2				3	1		
25	Marg‘ilon turizm va madaniy meros texnikumi	200140160	32	2						1	1		
26	Marg‘ilon bank moliya texnikumi	200140232	44	3		1				1	1		
27	2-Marg‘ilon Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi	206758272	78	5	1	2				2	1		
28	1-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203381374	62	4		2				2			
29	3-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206909804	74	5	1	2				2			
30	5-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206908314	62	4		2				2			
31	6-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206906515	114	8	1	2		1	1	3	1		
32	7-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206906429	92	6	1	2		1		2			
33	8-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206906508	102	7	1	2		1		3			
34	10-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206908615	64	4		1		1		2			
35	11-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206909795	110	8	1	4				3	1		
36	12-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206908590	60	4		1				2	1		
37	13-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206906444	92	6	1	2				3			
38	14-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	202239730	43	2	1			1					
39	15-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206906468	56	4	1	1				2			
40	16-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206906523	92	6		2		1		3			

41	17-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206908583	102	7		3				3	1		
42	19-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206909788	88	6		2		1		3	1		
43	20-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206906436	64	4		2				2			
44	21-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206906451	78	5		2		1		2			
45	22- maxsus aqli zaif umumiy o‘rta ta’lim maktabi	202531678	92	6	1	2				3			
46	23-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206906475	90	6		2		1		2	1		
47	24-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206911344	78	5	1	2				2			
48	25-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206906483	70	5		2				2	1		
49	26-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206906579	78	5		3				2			
50	27-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206906490	76	5		2				2	1		
51	28-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206908608	78	5		2				2	1		
52	29-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206918531	62	4		2				2			
53	30-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206906530	86	6	1	2				3	1		
54	31-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203248695	52	4		2		1		2			
55	32-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206918524	92	6		2		1		3			
56	1-IDIUM	200140145	97	7		4		1		3			
57	33-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	309871936	64	4		2		1		2			
58	1-Bolalar va o‘smirlar sport umumiy o‘rta ta’lim maktabi	303912721	42	3		1				1	1		
59	2-Bolalar va o‘smirlar sport umumiy o‘rta ta’lim maktabi	303911027	62	4		1				2	1		
60	8-Bolalar musiqa umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206988003	42	3	1	1				1			
61	9-Bolalar musiqa umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206988010	60	4		2				2			
62	10-Bolalar musiqa umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206988027	34	2		1				1			
63	25-maktabgacha ta’lim tashkiloti	207007343	34	2		1				1			
64	24-maktabgacha ta’lim tashkiloti	207007589	76	5	1	2				2			
65	17-maktabgacha ta’lim tashkiloti	207009063	35	2		1				1			
66	2-maktabgacha ta’lim tashkiloti	207007612	62	4	1	1				2			
67	14-maktabgacha ta’lim tashkiloti	207007604	40	3		2				1			
68	35-maktabgacha ta’lim tashkiloti	207007564	64	4	1	3				2			
69	9-maktabgacha ta’lim tashkiloti	207007350	40	3		2				1			

70	16-maktabgacha ta’lim tashkiloti	207007422	44	3	1	2				1			
71	6-maktabgacha ta’lim tashkiloti	207007399	60	4	1	2				2			
72	37-maktabgacha ta’lim tashkiloti	207007557	74	5	1	2				2			
73	32-maktabgacha ta’lim tashkiloti	207007629	64	4	1	1				2			
74	3-maktabgacha ta’lim tashkiloti	203220240	64	4	1	1				2			
75	20-maktabgacha ta’lim tashkiloti	207007367	60	4	1	1				2			
76	26-maktabgacha ta’lim tashkiloti	207007335	58	4	1	1				2			
77	15-maktabgacha ta’lim tashkiloti	207007382	72	5		2				3			
78	28-maktabgacha ta’lim tashkiloti	207079706	34	2		1				1			
79	21-maktabgacha ta’lim tashkiloti	207007446	64	4	1	3				2			
80	10-maktabgacha ta’lim tashkiloti	207031576	30	2		1				1			
81	8-maktabgacha ta’lim tashkiloti	207031022	33	2		1				1			
82	7-maktabgacha ta’lim tashkiloti	207031014	34	2		1				1			
83	33-maktabgacha ta’lim tashkiloti	207031039	55	4		2				2			
84	30-maktabgacha ta’lim tashkiloti	207031007	58	4	1	1				2			
85	18-maktabgacha ta’lim tashkiloti	207031544	35	2		1				1			
86	19-maktabgacha ta’lim tashkiloti	207007407	46	3		2				1			
87	38-maktabgacha ta’lim tashkiloti	306526455	56	4	1	1				2			
88	5-maktabgacha ta’lim tashkiloti	207007572	62	4		1				2	1		
89	36-maktabgacha ta’lim tashkiloti	207007439	60	4		1				3			
90	27-maktabgacha ta’lim tashkiloti	305429283	34	2		1				1			
91	13-maktabgacha ta’lim tashkiloti	305429275	32	2		1				1			
92	11-maktabgacha ta’lim tashkiloti	309136701	28	2		1				1			
93	Marg‘ilon shahar Madaniyat bo‘limi	200140224	45	3		1				2			
jami			**8319**	**582**	**56**	**182**	**0**	**26**	**11**	**248**	**54**	**3**	**1**